

---

## Qo'shtepa tumanida "Jadidlar izidan" Respublika tanlovining tuman bosqichiga start berildi

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida buyuk jadid alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma'naviy merosini keng targ'ib qilish, ma'naviy dunyosini boyitish maqsadida "Jadidlar izidan" Respublika tanlovi tashkil etildi. Shu munosabat bilan Qo'shtepa tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 49 ta umumta'lim maktablari o'quvchilari ishtirokida "Jadidlar izidan" Respublika tanlovining tuman bosqichiga start berildi.











